
Bahorgi dala ishlariga tayyorgarlikni yakunlagan fermer keyingi yumushlarga bimalol ulguradi

“Qish fasli — ish fasli” degan maqol aynan dehqonlarga qarata aytilgan. Chunki, tabiat uygʻonguncha bahorgi dala ishlariga tayyorgarlikni yakunlagan fermer keyingi yumushlarga bimalol ulguradi.

Qoʻsh tepa tumanidagi “Fargʻonadon klasteri”ga qarashli “Fayz ombori”da fermerlar ishtirokida aynan kelgusi yil mavsumiga tayyorgarlik koʻrish va amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar yuzasidan seminar oʻtkazildi.

Tuman sektor rahbarlari ishtirokida boʻlib oʻtgan seminarda kuz-qish oylarida bajarilishi lozim boʻlgan yumushlar haqida soʻz bordi. Shuningdek texnika vositalarini taʼmirlash va 76.90 sxemaga oʻtkazish, beton ariq qilish, pol olib shoʻr yuvish, dala uvot chetlarini tozalash hamda yangi texnikalar sotib olish boʻyicha koʻrsatmalar berildi.

2024-12-25 12:54:27